



O‘ZBEKISTON SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING HUDUDYI DINAMIKASI VA SANOAT SALOHİYATIDAGI TAFOVUTLAR TAHLILI

O‘rinboyev Ulug‘bek Otabekovich

Ma‘mun universiteti

Iqtisodiyot kafedrası o‘qıtuvchısı

E-mail: uurinboyev@mamunedu.uz

Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich

Ma‘mun universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası dots.v.v

E-mail: niyozmetov_doniyor@mamunedu.uz

Yakubov Sanatbek Ravshanbekovich

Ma‘mun universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası katta o‘qıtuvchısı

E-mail: yakubov_sanatbek@mamunedu.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida 2026-yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining hududiy holati, o‘shish sur‘atlari, aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish darajasi hamda sanoat salohiyatining hududlar kesimidagi tafovutlari tahlil qilinadi. Biroq aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari hududlar o‘rtasida keskin farqlanishini ko‘rsatadi. Maqolada ushbu tafovutlar sanoat korxonalarini joylashuvi, ishlab chiqarish ixtisoslashuvi, resurs bazasi, yirik sanoat obyektlari mavjudligi hamda hududiy industrial siyosat nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *sanoat ishlab chiqarishi, hududiy tafovut, fizik hajm indeksi, sanoat salohiyati, aholi jon boshiga sanoat mahsuloti.*

KIRISH

Sanoat ishlab chiqarishi milliy iqtisodiyotning real sektorini shakllantiruvchi asosiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishining hududlar kesimidagi holatini o‘rganish mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, hududiy ixtisoslashuv, kapital sig‘imi yuqori bo‘lgan tarmoqlar va sanoat infratuzilmasining rivojlanish darajasini baholash imkonini beradi. O‘zbekiston sharoitida sanoat ishlab chiqarishi nafaqat yalpi ichki mahsulot shakllanishiga, balki bandlik, eksport salohiyati, texnologik modernizatsiya va hududiy iqtisodiy barqarorlikka ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. 2026-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, respublikada 61,0 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritgan. Ularning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish hamda to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish kabi yo‘nalishlarga to‘g‘ri kelgan [1]. Bu holat O‘zbekiston sanoat

bazasida iste'mol tovarlari, qurilish materiallari, yengil sanoat va metallga ishlov berish yo'nalishlari muhim o'rin egallashini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining hududlar bo'yicha taqsimlanishi bir xilda emas. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil yanvar-mart oylarida respublika bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 289 254,4 mlrd so'mni tashkil etgan. Hududlar ichida Navoiy viloyati 73 503,9 mlrd so'm, Toshkent shahri 45 945,3 mlrd so'm va Toshkent viloyati 42 961,1 mlrd so'm sanoat mahsuloti ishlab chiqargan [1]. Ushbu ko'rsatkichlar sanoat ishlab chiqarishida ayrim hududlarning yuqori konsentratsiyaga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, sanoat ishlab chiqarishining umumiy o'sishi har doim ham hududlar bo'yicha mutanosib rivojlanishni anglatmaydi. Ba'zi hududlarda sanoat hajmi yuqori bo'lsa-da, o'sish sur'ati nisbatan past bo'lishi mumkin; boshqa hududlarda esa ishlab chiqarish hajmi kichik bo'lsa-da, fizik hajm indeksi yuqori bo'lishi kuzatiladi. Shuning uchun sanoat rivojlanishini faqat umumiy hajm ko'rsatkichi orqali emas, balki hududiy taqsimot, aholi jon boshiga ishlab chiqarish va real o'sish indeksleri asosida kompleks baholash zarur.

Metodologik jihatdan tadqiqotda quyidagi tahlillardan foydalanildi. Taqqoslama tahlil usuli orqali hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmlari va fizik hajm indeksleri o'zaro solishtirildi, strukturaviy tahlil usuli yordamida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida hududlarning nisbiy o'zni baholandi, aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish ko'rsatkichi sanoat salohiyatini baholashda muhim indikator sifatida qo'llandi.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi sanoatining viloyatlar kesimida ko'rsatkichlari⁷

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
O'zbekiston Respublikasi	289 254,4	108,0
<i>hududlar:</i>		
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 580,9	107,4
Andijon viloyati	25 945,4	108,4
Buxoro viloyati	12 671,1	108,2
Jizzax viloyati	9 132,4	107,8
Qashqadaryo viloyati	10 911,5	107,4
Navoiy viloyati	73 503,9	105,3
Namangan viloyati	9 279,0	108,8
Samarqand viloyati	14 552,2	109,0
Surxondaryo viloyati	3 777,2	108,7
Sirdaryo viloyati ⁷⁾	7 191,4	108,9
Toshkent viloyati	42 961,1	107,8
Farg'ona viloyati	13 763,7	108,0
Xorazm viloyati	8 229,4	108,1
Toshkent shahri	45 945,3	107,1

⁷ <https://siat.stat.uz/reports-filed/552/table-data> ma'lumotlari asosida



Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2026-yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston sanoati umumiy hajm jihatidan sezilarli o'sish qayd etgan. Respublika bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 289,3 trln so'mga yetgan, fizik hajm indeksi esa 108,0 foizni tashkil etgan [1]. Bu sanoat ishlab chiqarishining real hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,0 foizga oshganini anglatadi.

Hududlar kesimida eng yuqori sanoat ishlab chiqarish hajmi Navoiy viloyatida kuzatilgan. Mazkur hududda 2026-yil yanvar-mart oylarida 73 503,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Bu ko'rsatkich respublika sanoat ishlab chiqarishida Navoiy viloyatining strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Navoiy viloyatining yuqori natijasi, avvalo, kon-metallurgiya, kimyo sanoati va yirik sanoat korxonalarini faoliyati bilan izohlanadi.

Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha ikkinchi yirik markazlardan biri bo'lib, 45 945,3 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqargan. Toshkent shahrining yuqori sanoat salohiyati uning yirik bozor, transport-logistika markazi, xizmatlar va ishlab chiqarish infratuzilmasi rivojlangan hudud sifatidagi mavqeyi bilan bog'liq. Toshkent viloyati esa 42 961,1 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarib, respublikaning muhim sanoat hududlaridan biri sifatida namoyon bo'lgan [1].

Fizik hajm indeksi bo'yicha esa sanoat ishlab chiqarish hajmi eng katta hududlar emas, balki o'sish sur'ati yuqori bo'lgan hududlar ham alohida e'tibor talab qiladi. Masalan, Samarqand viloyatida fizik hajm indeksi 109,0 foizni, Sirdaryo viloyatida 108,9 foizni, Namangan viloyatida 108,8 foizni, Surxondaryo viloyatida 108,7 foizni tashkil etgan [1]. Bu hududlarda sanoat ishlab chiqarishining real o'sish sur'ati respublika o'rtacha darajasiga yaqin yoki undan yuqori bo'lgan.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari hududlar o'rtasidagi tafovutni yanada yaqqol namoyon qiladi. Respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 7,6 mln so'm bo'lgan bir paytda, Navoiy viloyatida ushbu ko'rsatkich 66,0 mln so'mni tashkil etgan. Bu respublika o'rtacha darajasidan bir necha baravar yuqori. Toshkent shahrida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 14,4 mln so'm, Toshkent viloyatida esa 13,6 mln so'm bo'lgan [1].

Ushbu natijalar sanoat ishlab chiqarishining hududiy konsentratsiyasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni sanoat ishlab chiqarishining katta qismi sanoat infratuzilmasi rivojlangan, yirik korxonalar joylashgan va resurs bazasiga ega hududlarda jamlangan. Aksincha, ayrim hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi nisbatan past bo'lsa-da, o'sish sur'atlarining yuqoriligi ularning sanoatlashuv jarayoniga faol kirib borayotganini anglatadi.

O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishining 2026-yil yanvar-mart oylaridagi natijalari ikki muhim tendensiyaning ko'rsatadiki. Birinchisi - sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi o'sib bormoqda. Ikkinchisi - ushbu o'sish hududlar bo'yicha notekis taqsimlangan. Bunday holat rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun xos bo'lib, sanoat



infratuzilmasi, xomashyo bazasi, investitsiya oqimi va yirik korxonalar joylashuvi hududiy tafovutlarni shakllantiradi.

Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishida yetakchi o'ringa ega bo'lishi tasodifiy emas. Viloyat iqtisodiyotida kon-metallurgiya sanoati, kimyo sanoati va yirik eksportbop ishlab chiqarishlar muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun hududda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichi respublika o'rtacha darajasidan ancha yuqori. Biroq bu ko'rsatkichni baholashda ehtiyotkorlik zarur: aholi jon boshiga yuqori sanoat mahsuloti har doim ham hudud aholisi daromadlari yoki bandlik sifati mutanosib ravishda yuqori degani emas. Chunki kapital sig'imi yuqori bo'lgan sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmi katta bo'lishi mumkin, biroq ish o'rinlari soni nisbatan kam bo'lishi ehtimoli mavjud.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatining yuqori sanoat natijalari esa sanoatning bozor, logistika, iste'mol va investitsiya infratuzilmasi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Toshkent aglomeratsiyasi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika va xizmat ko'rsatish zanjirlari bir-biri bilan kuchli integratsiyalashgan hudud hisoblanadi.

Samarqand, Namangan, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida fizik hajm indeksining yuqori bo'lishi sanoatning kengayish jarayonini ko'rsatadi. Bu hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi Navoiy yoki Toshkent hududlaridagi kabi yuqori bo'lmas-da, o'sish sur'atlari nisbatan faol. Ayniqsa, Sirdaryo viloyati bo'yicha press-relizda yangi ishga tushirilgan davlat-xususiy sheriklik asosidagi elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi korxonalar hajmi qamrovga olingani qayd etilgan [1]. Bu holat hududiy sanoat o'sishida energetika infratuzilmasi va davlat-xususiy sheriklik loyihalarining roli ortib borayotganini ko'rsatadi.

Sanoat ishlab chiqarishining hududlar bo'yicha notekisligi iqtisodiy siyosat uchun muhim xulosa beradi. Rivojlangan sanoat markazlarida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi sanoatlashayotgan hududlarda esa kichik va o'rta sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani yaxshilash va mahalliy xomashyoni qayta ishlashga yo'naltirilgan siyosat muhim hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlari ham O'zbekistonda qayta ishlash sanoatining YAIMdagi ulushi uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishda muhim indikatorlardan biri ekanini ko'rsatadi [3].

UNIDO sanoat rivojlanishi bo'yicha hisobotlarida ishlab chiqarish sanoati barqaror iqtisodiy o'sish, texnologik yangilanish va bandlik multiplikatori sifatida baholanadi [2]. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston sanoat siyosatida faqat hajmiy o'sish emas, balki hududlar o'rtasida sanoat imkoniyatlarini kengaytirish, texnologik modernizatsiya va ishlab chiqarish zanjirlarini chuqurlashtirish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Xulosa va tavsiyalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2026-yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajm va real o'sish bo'yicha ijobiy natija qayd etgan. Respublika bo'yicha 289,3 trln so'mlik sanoat



mahsulotlari ishlab chiqarilgan va fizik hajm indeksi 108,0 foizni tashkil etgan [1]. Bu sanoat sektorida real o'sish mavjudligini bildiradi.

Hududiy tahlil sanoat ishlab chiqarishining yuqori darajada konsentratsiyalashganini ko'rsatadi. Navoiy viloyati, Toshkent shahri va Toshkent viloyati sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi hamda aholi jon boshiga sanoat mahsuloti bo'yicha yetakchi hududlar sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, Navoiy viloyatida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 66,0 mln so'mga yetgani hududning sanoat salohiyati juda yuqori ekanini ko'rsatadi [1].

Shu bilan birga, Samarqand, Sirdaryo, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida fizik hajm indeksining yuqoriligi ushbu hududlarda sanoat ishlab chiqarishi nisbatan faol o'sayotganini bildiradi. Bu hududlarda sanoat hajmini kengaytirish, investitsiya loyihalarini jalb qilish va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish orqali sanoat salohiyatini oshirish imkoniyati mavjud.

Umuman olganda, O'zbekiston sanoat siyosatida ikki yo'nalish muhim ahamiyat kasb etadi: birinchisi, mavjud yirik sanoat markazlarida yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarishni rivojlantirish; ikkinchisi, sanoatlashuv darajasi pastroq hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasi, kichik va o'rta sanoat korxonalarini hamda mahalliy resurslarni qayta ishlash tizimini qo'llab-quvvatlashdir. Ana shu yondashuv sanoat ishlab chiqarishining nafaqat umumiy hajmda, balki hududiy mutanosiblik va barqaror iqtisodiy rivojlanish nuqtayi nazaridan ham samarali o'sishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[1] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. "O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi. 2026-yil yanvar-mart oylarida." Press-reliz, 2026-yil 30-aprel. <https://siat.stat.uz/reports-filed/552/table-data>

[2] UNIDO. *Industrial Development Report 2024*. <https://www.unido.org/sites/default/files/unido-publications/2024-06/Industrial%20Development%20Report%202024>

[3] Jabbarov, M., & Ruzmetova, G. N. (2025). O 'ZBEKISTONDA KLASTER IQTISODIYOTI: INVESTITSIYALAR, EKSPORT VA SANOAT ISHLAB CHIQRISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI (2022-2024-YILLAR KESIMIDA). MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT, 3(12).

[4] Yakubov, S. A. (2026). O 'ZBEKISTONDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA RAQAMLI MA'MURCHILIK. MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT, 4(2).

[5] Niyozmetov, D. (2024). ACTIVITIES AND SPECIFICS OF COMMERCIAL BANKS IN THE SECURITIES MARKET. In International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies (Vol. 11, pp. 57-58).